

RASSOMLAR IJODIDA ZAMON VA VAQT TALQINI



Eshmamat Xaitov

MRDI "Dastgohli rangtasvir" kafedrasini mudiri, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21218114>

Annotatsiya. Maqolada umrning har bir lahzasini, uning go'zal sifat va sinoatlarini badiylashtirish masalalari rassomlar tafakkurida qanday kechishi masalalari yuzasidan ayrim mulohazalar bildirilan.

Kalit so'zlar: rassom, zamon, vaqt, insonlar, makon, tasvir, go'zallik, tasavvur, tafakkur, manzara, qiyofa.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы художественного осмысления каждого момента жизни, ее прекрасных качеств и мастерства в сознании художников.

Ключевые слова: художник, эпоха, время, люди, пространство, образ, красота, воображение, мышление, пейзаж, изображение.

Vaqt haqida gap ketganda olimlar uni ibtido va intihosi yo'k uzluksiz kattalik deb ataydilar. Shuning uchun ham, u har doim mavjud bo'lgan va bundan keyin ham mavjud bo'ladi deb hisoblaydilar. Vaqtni lahzalarning tartibga solingan ketma-ketligidan o'zga narsa emas, deb hisoblovchilar ham bor. Vaqtning vazifalari xususida gap ketganda. uning birlamchi vazifalaridan biri bugun yordamida o'tmishni kelajakdan ajratib turish hisoblanishini aytadilar. Binobarin, butun harakat faqat bugunda namoyon bo'ladi, faqat bugundagina harakat bor, o'tmishda ham, kelajakda ham na materiya bor, na harakat bor deb tushuntiriladi.

"Vaqt - bu harakatlar oqimidan, harakatlar cheksizligidan iborat," deydi buyuk faylasuf Aristotel. U oddiy zarrachalardan tortib yulduzlar va boshqa sayyoralargacha bo'lgan mavjud elementlar dunyosining harakatlar ketma-ketligidan iborat. «Vaqtning yurishi» tushunchasi «olamning harakatlanishi» tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega. Agar harakat jarayonlar bo'lmasa vaqt mavjud bo'lmaydi".

Zamon esa nafaqat uzluksiz kattalikdagi vaqtdan, balki bir butun holida insoniyat jamiyatidan, uning muddatlarga taqsimlangan, ya'ni o'lhovli umri azizidan va ana shu hayoti davomida qilgan ishlaridan, umuman olganda, tiriklik dunyosining bexisob jarayonlar majmuasidan iborat.

Milliardlab insonlar qatorida rassom ham ana shu ulkan uzluksiz kattalik - zamonda va odamzod uchun ajratilgan makonda yashashga ixtiyor etilgandir. U mavjudot sifatida oddiy inson hisoblanib, Tangri ato etgan iste'dodi bilan zamon va makonda namoyon bo'ladigan harakatlarni matoga muhrlash, go'zallikning hamma ilg'ayvermaydigan tomonlarini kashf qilish, narsa va hodisalarning xakikiy dunyosini anglash, ularning mohiyatiga chuqur kirish, ilohiy haqiqatlarning ilmiy isbotini topishga intilish singari bir qator vazifalardan kelib chiqib, o'zining ijodiy olamida

zamon va makon chegaralariga nisbatan daxlsiz bo'lishga aksariyat ijodkorlar kabi haqli hisoblanadi.

Shu ma'noda, o'zining 2200 yillik tarixiga ega bo'lgan qadim va azim shahrimiz Toshkentning qiyofasi bugunga qadar ko'plab mo'yqalam ustalari tomonidan matolarga muxrlangandir.

Bosh shahrimiz hayotiga, uning kiyofasiga, o'tmishi, tarixi yoki bugungi kuniga bag'ishlangan alohida asarlar bilan bir qatorda xalqimizning taniqli rassomlari U. Tansiqboyev, A. Abdullayev, R. Choriyev va boshqa mo'yqalam ustalari ijodida ham azim Toshkentning u yoki bu ko'rinishi, ajoyib tabiatining kaysidir jihatlarini, poytaxt aholisining xayot tarzi, kundalik maishiy turmushi, mehnat faoliyatining u yoki bu jabhalari albatta o'z aksini topganki, bunga dalillar keltirishning zarurati yo'q.

Dunyo tamadduni rivojiga ulkan xissa qo'shgan, haqli ravishda «Sharq darvozasi», «Shark durdonasi» nomlarini olgan, xalqimizning g'urur va iftixori bo'lgan azim poytaxtimiz Toshkent shahrining milliy davlatchiligimiz tarixida, ijtimoiy-siyosiy hayotimizda o'zni beqiyosdir.

Qadimda Choch, Shosh, Shoshkent, Binkent deb atalgan hozirgi Toshkent o'rnida ikki ming yil oldin obod shahar bo'lganligini tarixiy ma'lumotlar tasdiqlaydi.

Qolaversa, Toshkent faqat muazzam tarixiy obidalari-yu, ko'rkam bino va inshootlari bilan emas, balki, bag'ridan yetishib chiqqan, insoniyatning ma'naviy kamoloti yo'lida ulkan xizmatlar qilgan buyuk insonlari bilan ham har qancha e'zoz va tahsinga loyiqdir.

Toshkenti azimda juda ko'p allomalar yashab o'tgan. Abu Bakr Shoshiy, Qaffol Shoshiy, Badriddin Vosifiy, Abu Abdulloh Ilokiy, Ko'hakiy. Shayx Zayniddin Ko'yi Orifon, Shayx Hovandi Tohur, Xo'ja Ahror Valiy va boshqa ulug' zotlar shahar hayoti hakida qimmatli ma'lumotlar koldirish barobarida uning ma'naviy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar.

Vatanimiz istiqbolga erishgandan keyingi yillarda poytaxtimizda juda katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati binolari, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi, Milliy teatr va O'zbekiston Davlat konservatoriyasi, mexmonxonalar, bank binolari... Ularning har biri o'ziga xos joziba va mahorat namunalari.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda ham shaharda katta bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Bir tomonda tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash ishlari davom etmoqda. Hazrati Imom (Hastimom), Suzuk ota, Ko'kaldosh va boshqa tarixiy yodgorliklar qaytadan qurilib. shahar chiroyni ochgan bo'lsa, ikkinchi tomonda milliy arxitekturamizga mos tarzda osmono'par zamonaviy, muhtasham binolar qad rostlayaiti.

«Tinchlik va do'stlik shahri», «Non shahri» kabi yuksak sifatlari bilan asrlar osha shaharga qadam qo'ygan insonlarni maftunu lol etib kelayotgan azim Toshkentimiz shu kunlarda har kachongidan ham ko'rkam va go'zal ekan, uning husnu latofati shoirlar, yozuvchilar. hofizlar qatorida rassomlar qalbiga ham bir olam ilhom solib, yangidan-yangi ijodiy ishlar sari undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Normatov. Sabr daraxtida ochilgan gullar.-T.: San'at.,2014. №4, 25-28 betlar.
2. Sharipova G. Olovning evrilishi. —//“San'at” jurnali, 2013. №2. —B.10.
3. Axmedova E.R. Ranglarda aks etgan doston. —//“San'at” jurnali, 2000. №3. —B.30.